

IKKINCHI JAHON URUSHIDA XORAZMLIKLARNING JANG MAYDONIDAGI ROLI VA VATAN HIMOYASIDAGI HISSASI

Ishchanova Oybika Farhod qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

Tarix yoʻnalishi 2 kurs magistranti.

e-mail: oybikaishchanova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18377310>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyatidan safarbar etilgan jangchilarning frontlardagi ishtiroki, ularning jangovar faoliyati hamda umumiy gʻalabaga qoʻshgan hisssasi tarixiy manbalar asosida tahlil etilgan. Shuningdek, ularning jang maydonidagi jasorati, harbiy vazifalarni bajarishdagi masʼuliyati va Vatan himoyasidagi oʻrni ilmiy nuqtai nazardan baholangan.

Kalit soʻzlar: Ikkinchi jahon urushi, Xorazmlik jangchilar, frontlardagi ishtirok, harbiy faoliyat, Vatan himoyasi, tarixiy xotira, umumiy gʻalaba, hududiy harbiy tarix.

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников анализируется участие солдат, мобилизованных из Хорезмской области, на фронтах во время Второй мировой войны, их боевая деятельность и вклад в общую победу. Также с научной точки зрения оценивается их храбрость на поле боя, ответственность при выполнении военных задач и роль в обороне Родины.

Ключевые слова: Вторая мировая война, хорезмские бойцы, участие на фронтах, военная деятельность, оборона Родины, историческая память, общая победа, региональная военная история.

Abstract. This article analyzes the participation of soldiers mobilized from the Khorezm region on the fronts during World War II, their combat activities and their contribution to the general victory based on historical sources. Also, their courage on the battlefield, responsibility in performing military tasks and their role in the defense of the Motherland are evaluated from a scientific point of view.

Keywords: World War II, Khorezm fighters, participation on the fronts, military activities, defense of the Motherland, historical memory, general victory, regional military history.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixida hal qiluvchi voqealardan biri boʻlib, unda turli hududlardan chiqqan jangchilar muhim rol oʻynagan. Shu jumladan, Xorazmlik jangchilar frontlarda faol ishtirok etib, umumiy gʻalabaga oʻz hissalarini qoʻshgan. Ularning harbiy tajribasi va jasorati yetarli darajada oʻrganilmaganligi sababli, bu mavzu nafaqat tarixiy xotirani boyitadi, balki milliy meros va madaniy gʻurur uchun ham ahamiyatlidir.

Bu borada Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev urush tarixini insoniyat uchun saboq va qadriyat sifatida talqin qiladi. U urush va mehnat fronti qatnashchilarini “azmu shijoatli, dovyurak ota-bobolarimiz, sabr-matonatli onalarimiz, momolarimiz” deb taʼkidlab, ularning jasoratini, fidoyiligini va milliy xotirani qadrlash zaruratini eʼtirof etadi [4].

1941-yilda Ikkinchi jahon urushining SSSR hududiga yoyilishi bilan bir qatorda Oʻzbekiston ham ushbu global harbiy-siyosiy jarayonlarga bevosita jalb etildi.

Respublikamizning barcha hududlari singari Xorazm viloyatidan ham minglab fuqarolar frontga safarbar etildi. 2021-yilda e'lon qilingan yangi tadqiqot natijalariga ko'ra, Xorazm viloyatidan jami 132 340 nafar kishi urushda qatnashgan bo'lib, ularning 35 845 nafari jang maydonlarida halok bo'lgan, 53 058 nafari bedarak yo'qolgan, 13 211 nafari nogiron bo'lib qaytgan, 276 nafari asirlikka tushgan hamda 30 450 nafari urushdan keyin vataniga qaytishga muvaffaq bo'lgan. Ushbu raqamlar Xorazmlik jangchilarning urush frontlaridagi ishtiroki nafaqat keng ko'lamli bo'lganini, balki nihoyatda og'ir yo'qotishlar evaziga kechganini ko'rsatadi [1:7].

Xorazmlik yigit-qizlar urush frontlarida mardonavor jang qilib, qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar, xalq oldidagi o'z muqaddas burchlarini sharaf bilan ado etdilar. Sovet Ittifoqi qahramoni Satim Nurmetov 1924-yilda Xiva shahrida tug'ilgan. Frontga jo'nash arafasida Xiva elektr stansiyasida elektromontyor bo'lib ishlagan. 1943-yil aprel oyida harakatdagi Qizil Armiya safiga chaqirilgan. Zaxira polkida qisqa muddatda harbiy tayyorgarlikdan o'tgach, Satim Nurmetov jang-gohning oldingi liniyasiga jo'natildi. Birinchi jangdayoq u oyog'idan Yarador bo'ldi. Davolanib gospitaldan chiqqach, 13-gvardiyachi o'qchilar korpusifung 51-sapyorlar batalyoniga yuborildi. Bu yerda u ikkinchi bor yarador bo'lishig qaramay, jang maydonini tashlab ketmadi. Shu batalyon safida Perekop, Yevpa-toriya, Sevastopolni dushmandan ozod qilishda qatnashdi. Perekopni shturm bilan olish paytida ko'rsatgan jasorati uchun «Jasorat» medali bilan, Sapun-gorani olishdagi jasorati uchun esa III darajali «Shuhrat» ordeni bilan taqdirlandi [2:248].

Sovet Ittifoqi Qahramoni Gataulla Salixov 1924-yilda tug'ilgan, millati tatar, 1942-yilda Urganch harbiy komissariati tomonidan Sovet Armiyasi safiga chaqi-rilgan. Serjant G.Salixov 513-o'qchilar polkining 129-o'qchilar diviziyasidagi o'qchilar bo'limining komandiri bo'lib xizmat qildi. Gataulla Salixov sobiq SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1943-yil 27-avgust farmoniga muvofiq janggohlarda ko'rsatgan jasorati va mardligi uchun «Sovet Ittifoqi Qahramoni» oliy unvoni bilan taqdirlandi. Urush tugagach, G.Salixov harbiy piyodalar bilim yurtini tugatdi. U podpolkovnik unvonida zaxiraga jo'na-tildi. Moskva shahrida yashab, shu shahardagi oliygohlarda ishladi [1:8].

Sovet Ittifoqi qahramoni Sizov Pyotr Ivanovich (jangda halok bo'lgach, qahramonlik unvoniga taqdim etilgan) 1909-yilda Melitopol rayonida tug'ilgan, millati rus, Sovet Armiyasi safiga Urganch harbiy komissariyati tomonidan 1942-yilda chaqirilgan. Frontga chaqirilmasdan ilgari u Xorazm viloyati statistika boshqarmasida ishlagan. Gvardiyachi kapitan Sizov 71-gvardiyachi gchilar polkining 24-gvardiyachi o'qchilar diviziyasi partiya tashviqotchisi lavozimida xizmat qilgan [3:4].

Avezmuratov Raxim Avezmurotovich "Shuhrat" ordeni to'la kavaleri. U 1924-yilda Shovot tumanining Bo'yrachi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Millati o'zbek, 1941-yilda Chkalov nomli kolxozda mexanik bo'lib ishlagan, 1942-yilning dekabr oyida harbiy xizmatga chaqirilgan.

Raxim Avezmuratov haqida 215-gvardiyachi Qizil Bayroq ordenli o'qchi polki komandiri Biqov shunday yozadi, - Polshani Gurka qishlog'ida nomsiz tepalik uchun bo'lgan jangda Raxim Avezmuratov jangavor mardlik va shaxsan qo'rqmaslik timsolini ko'rsatdi. O'z bo'linmasi jangchilari bilan dushman transheyasiga yashirinib bordi va u yerda o'tirgan dushman jangchilarini pulemyotdan o'qqa tutdi. Bu jangda uning o'zi shaxsan 20 dan ziyod fashistni yer tishlatdi [1:9].

Urush yillarida Xorazm viloyatida vatanparvarlik harakatining yana bir muhim yo'nalishi aholini, ayniqsa yoshlarni yoppasiga harbiy ishga o'rgatish va Qizil Armiya uchun tayyor zaxiralarni shakllantirish bilan bog'liq bo'ldi. 1941-yil 17-sentabrda Davlat mudofaa qo'mitasi tomonidan qabul qilingan «SSSR fuqarolarini umumiy majburiy tartibda harbiy ishga o'qitish to'g'risida»gi qaror asosida 16 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan erkaklar uchun 110 soatlik harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari joriy etildi. Ushbu chora-tadbirlar Xorazm viloyatida aholini harbiy jihatdan safarbar etish tizimining mustahkamlanishiga xizmat qilib, frontlardagi jangovar harakatlar uchun zarur bo'lgan inson resurslarini uzluksiz ta'minlashda muhim omil bo'ldi [5:489].

Shunday qilib, Ikkinchi jahon urushida Xorazmlik jangchilarning frontlardagi ishtiroki va ularning Vatan himoyasi hamda umumiy g'alabaga qo'shgan hissasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, Xorazm viloyatidan safarbar etilgan jangchilar urushning turli frontlarida faol qatnashib, harbiy harakatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim rol o'ynagan. Ularning jasorati, fidoyiligi va harbiy intizomi frontdagi vazifalarning samarali bajarilishiga xizmat qilgan.

Xorazmlik jangchilarning nafaqat jangovar harakatlarda, balki aloqa, muhandislik, ta'minot va tibbiyot sohalarida ham muhim vazifalarni bajarganini tasdiqlaydi. Bu holat ularning urush jarayonidagi ishtiroki ko'p qirrali bo'lganini va umumiy g'alabaga sezilarli ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar tahlili orqali Xorazmlik jangchilarning frontdagi faoliyati haqida yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkoniyati yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, Ikkinchi jahon urushida Xorazmliklarning frontlardagi ishtirokini o'rganish hududiy harbiy tarixni boyitadi, tarixiy xotirani saqlashga xizmat qiladi hamda yosh avlodda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mavzu kelgusida yanada kengroq manbalar asosida chuqur tadqiq etilishi zarur bo'lgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Allamberganov Sh., Jumaniyozova F. Xorazmliklarning fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga qo'shgan hissalar. Monografiya. – Buxoro. “Durdona”. 2024. ,-7.
2. А.Ахмедов ва бошқалар. Ўзбекистонлик Иккинчи жаҳон уруши қаҳрамонлари.-Т. “Sharq” 2020. 6-248.
3. Bilolov G. Sobirov O. Qahramon qiz Olga. Xorazm haqiqati. 1980 yil 9 may. 4-bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Buyuk g'alabaning 75 yilligi hamda xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. Yangi O'zbekiston. 2020-yil 10-may.
5. A. S. Sagdullayev [va boshq.]. O'zbekiston tarixi. XI jild, Xorazm tarixi. Toshkent: «O'zbekiston», 2023. 489-bet.